Yo‘lovchi va kutib oluvchilar diqqatiga

2022 14 Dekabr

2022-yil 14-dekabr kuni Namangan, Andijon va Farg‘ona xalqaro aeroportlarining noqulay ob-havo sharoiti tufayli (tuman, ko‘rish darajasining yomonligi) Uzbekistan Airways bir nechta reyslari majburiy kechiktiriladi:

HY-622 Moskva - Andijon reysi majburiy ravishda Namangan zaxira aeroportiga yo‘naltirildi.

HY-621 Andijon - Moskva va HY-9607 Buxoro - Moskva reyslari tez orada o‘z yo‘nalishi bo‘yicha jo‘nab ketadi.

HY-087/HY-088 Urganch-Farg‘ona-Urganch, HY-052 Urganch-Toshkent, HY-017/HY-018 Toshkent-Nukus-Toshkent, HY-081/HY-082 Toshkent-Farg‘ona-Toshkent va HY277/HY-278 Farg‘ona – Istanbul – Farg‘ona reyslari Farg‘ona xalqaro aeroportining noqulay ob-havo sharoiti (ko‘rishning yomonligi, tuman) tufayli kechiktiriladi.

Bundan tashqari, HY-047/HY-048 Namangan - Samarqand – Namangan, HY-087/HY-088 Urganch – Farg‘ona – Urganch parvozlari majburiy bekor qilindi.

Yo‘lovchilar bekor bo‘lgan qatnov aviachiptalarining to‘liq qiymatini chipta sotib olingan joyda qaytarib olishlari yoki boshqa sanaga bepul qayta bronlash huquqiga egadirlar.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati aviakompaniya uchun parvozlar xavfsizligi yuqori o‘rinda turishini eslatib o‘tadi. Keltirilgan noqulayliklar uchun yo‘lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so‘raymiz.